

## “Yor-yor” aytimi xususida

Nasiba Mamatovna Turgunova

nasiba2507@mail.ru

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

**Annotatsiya:** “Yor-yor” marosim qo‘shiqlarining ildizlari juda qadimiy ekanligini ularning kuy-ohanglarida aks etib turadi. “Yor-yor”larning kuy tuzilmasi yig‘i ohanglari asosiga qurilgandir. Bu aytimlarning sodda intonatsiya asosiga qurilgani ko‘hna musiqa madaniyatini eslatadi. Farg‘ona vodiysining turli hududlarida ayollar tomonidan ijro etib kelinayotgan “Yor-yor” qo‘shiqlarining aksariyati o‘zining sodda ohanglari bilan jilolanishini ko‘ramiz.

**Kalit so’zlar:** ko‘hna, an’ana, yor-yor, ohang, kuy, usul, doyra, yig‘i

### About the “Yor-yor” song

Nasiba Mamatovna Turgunova

nasiba2507@mail.ru

Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

**Abstract:** The roots of the ritual songs “Yor-Yor” are very ancient, which is reflected in their melodies. The melodic structure of "Yor-yor" is built on the basis of crying tones. The simple intonation of these statements is reminiscent of ancient musical culture. We see that most of the “Yor-yor” songs performed by women in different regions of the Fergana Valley are honed with their simple melody.

**Keywords:** ancient, tradition, yor-yor, melody, usul, doyra, cry

Tarixdan ma'lumki, qadimgi tamaddunlar yuzaga kelishida ayollar ijodi ham katta ijtimoiy ahamiyat kasb etgan [5.50-115.]. Shu jumladan, islomgacha bo‘lgan diniy e’tiqodlar bilan bog‘liq turli ibodat marosimlarini amalga oshirishda ayollarning faol ishtiroki qayd etiladi. Zero, K.Olimboyeva-Ahmedova o‘rinli ta’kidlaganidek: “O‘tmishda din ayollar hayotida ham rahnamo ma’naviy kuch hisoblangan. Shuning uchun ayollar hayotining katta qismi murakkab diniy marosimlar, taomil va odatlarni bajo keltirishga qaratilgan edi... O‘z davrida ko‘pchilik marosimlarga bog‘liq qo‘shiqlar, kuylar, marsiya yoki motam qo‘shiqlari keng tarqalgan. Bu xildagi marosim qo‘shiqlari ayollar tomonidan aynan shu marosim vaqtida ijro etilgan” [8.7.].

Ana shunday marosim qo'shiqlaridan biri "Yor-yor"dir. Chunki, ayollar qalbida muqaddas tuyg'ular bilan uyg'un bunday aytimlar "Alla" va "Yig'i" singari "o'zbek ayollarini hayotining ajralmas qismi hisoblangan" [8.18.]. Uzoq davrlardan bugungi kungacha o'z qiymatini yo'qotmay kelayotgan "Yor-yor"lar bizga ayon bo'lgan ayollar ohang lug'ati negizini tashkil etganligi bilan alohida ahamiyatlidir.

"Yor-yor" marosim qo'shiqlarining ildizlari juda qadimiy ekanligiga bir qator omillar dalil bo'la oladi. Birinchi galda bu namunalarning kuy-ohanglari e'tiborlidir. Alloma Ishoq Rajabov "Yor-yor" qo'shiqlarini o'zining sodda intonatsiyasi, ritmik xususiyatlari jihatidan musiqa madaniyatining dastlabki davrlariga mansubdir", deya e'tiroflaydi [11.49]. Darhaqiqat, Farg'ona vodiysining turli hududlarida ayollar tomonidan aytilib kelinayotgan "Yor-yor" qo'shiqlarining aksariyati o'zining sodda ohanglari bilan jilolanishini ko'ramiz. Bunga Andijon viloyatining Izboskan tumani ayollarini orasida an'anaviy aytib kelinayotgan "Yor-yor"ni misol keltirish mumkin. Quyidagi ushbu aytim namunasi 2013 yili 85 yoshini qarshilagan Muborakxon aya Qirg'izovadan yozib olingan edi.

### Yor-yor

The musical notation consists of two staves of music. The first staff starts with a G clef, a 3/4 time signature, and a B-flat key signature. The second staff starts with a G clef, a 3/4 time signature, and an A-flat key signature. The lyrics are: Dar-yo - ga tosh ot- mang - la - ro cho' kar  
ke - tar, yor - yor, cho' kar ke - tar.

Mazkur "Yor-yor" aytimiga kichik tertsiya doirasida kelgan tovushlar uchligi - "es-d-c" asos bo'lganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Mutaxassislar quyi yo'nalishda bunday uyushgan yondosh tovush-bosqichli aytimlar xalq ijodiyotining juda qadimgi davrlariga mansubligini qayd etganlar. Jumladan, taniqli musiqa nazariyotchisi O.Azimova ladlarning tayanch pardasi ilk bor o'rta diapazonda shakllanganligini, so'ngra shu asosda quyi tayanch qaror topib, yuqori tovushlar ham o'zlashtirilganligi haqida yozadi [2.40.].

Olimaning muhim bu kuzatuvlari nota misolidagi "Yor-yor" ohang tuzilmasining ildizlari lad nuqtai nazaridan ham qadimiy ekanligini anglashga ko'mak beradi: aytimchi (yallachi) dastlab III bosqich tovushi ("es")ga tayanib boshlagan ohang harakatini har gal I bosqichda o'rnashgan "c" tovushida yakunlaydi. Bunda, shubhasiz, quyi tonika tamoyiliga amal qilinganligi ma'lum. Natijada III bosqich tovushi yarim tayanch, I bosqich tovushi esa asosiy tayanch pardalari tarzida idrokvana boshlaydi. Ohangning keyingi rivoji davomida yuqorida joylashgan IV ("f"), V ("g") va VI ("as") bosqich tovushlari o'zlashtiriladi. Negizi kichik tersiya


qamrovli shu tariqa ohanglar vodiyya aytيلاتقانىڭ كۆپلەب “Yor-yor”لار بىلەن بىرغا ياللاچىلىك ايتىملىرىدا ھام كۈزاتىلادى.

T.Vizgoning quyidagi ilmiy mulohazalari ham o‘rganilayotgan mavzu tavsifida qimmatlidir: “O‘zaro yondosh tovushlarning kichik tersiya doirasida uyushib kelishi, shubhasiz, “lad tuzilmalarining eng olis davrlariga mansubdir” [4.33.]. Shuningdek, olimaning ta’kidlashicha, tor diapazonda takrorlanib turuvchi qisqa kuy tuzilmalari qadimiylilik taassurotini ham uyg‘otadi. Zero, “qachonlardir xalqning jonli musiqa amaliyotidan olingen bunday aytim ohanglari ma’lum topinish (“kult”)ga bog‘lab qo‘yilgach, go‘yo qotib “jimib” qolgan, hamda xalq qo‘srig‘idan farqli o‘laroq, rivojlanishdan butkul to‘xtagan” [4.33.]. T.Vizgoning bu kuzatuvlarida katta asos bor, albatta. Chunki yuqorida ko‘rilgan kichik ohang tuzilmasi yoki shunga o‘xshash ohang qurilmalari vodiyya aytيلاتقانىڭ qariyb barcha “Yor-yor”larda кузатилиши yuqorida ta’kidlab o‘tildi. To‘g‘ri, biz “Yor-yor”larni tinglaganda ularda o‘tmish bilan hamohang qotib qolgan ohanglarni doim ham his qila olmasligimiz mumkin. Aniqrog‘i, bunga ayollarning, ayniqsa, yallachilarining ijodiy topqirligi “yo‘l qo‘ymaydi”.

Bu o‘rinda “Yor-yor”larning ohangiga bog‘lanib keladigan uch yoki olti hissali doyra usullarining ham o‘ziga xos “niqoblovchi” ahamiyati bor. Aslida, “Yor-yor”larning “favqulotda ta’sirli ekanligi ularda bir vaqtning o‘zida ikki turli holat - ham mungli yig‘i, ham bayramona shodiyonalik kayfiyatları mujassam etilganligi bilan tavsiflanadi. Yig‘ining badiiy in’ikosi aytim kuy-ohanglarida, ommaviy shodiyonalik holati esa doyra usulida zuhur bo‘ladi”, - deb yozadi musiqashunos olim O.Ibrohimov [6.37.].

“Yor-yor”larning kuy tuzilmasiga yig‘i ohanglari asos bo‘lganligi haqidagi fikrga musiqiy-folklor ekspeditsiyasi jarayonida namanganlik taniqli yallachi Tursunoy Mamedovadan yozib olingen “Yig‘layman” aytimidän dalil keltirish mumkin. Mazkur namunada naqarot kabi takrorlanib turuvchi “yig‘layman” so‘zi, “Yor-yor”da kuzatilganidek, kichik tersiya doirasida cho‘qqidan asosga (pastga) yo‘nalgan tovushlar (c-h<sub>1</sub>-a<sub>1</sub>) ga bog‘lanib aytildi:

Yig‘layman



1931 yili V.Uspenskiy Andijon shahrida To'xtasin Jalilovdan yozib olgan "Nola" aytimining ohangi ham kichik tertsiya asosida kelganligini ko'ramiz [12.].

### Nola

The musical notation consists of two staves of music. The first staff starts with a half note followed by a dotted half note. The second staff starts with a half note. The lyrics are written below the notes.

Nazarimizda, mazkur aytim nomi "nola" so'zining "yig'i", "fig'on" kabi lug'aviy ma'nolari asosida yuzaga kelgan.

"Yor-yor"larda yig'i ohanglarining borligi ham ularning ildizlari qadimiy ekanligiga asos bo'lishi mumkin. O'ylashimizcha, "Yor-yor"lar uzoq o'tmishda o'tkazilgan nafaqat to'y, balki turli e'tiqodlar bilan bog'liq diniy marosim va bayramlarda ham aytilgan. Bu yerda ajdodlarimiz tomonidan "Yor-yor"larga "qo'shiq" atamasiining birinchi bor qanday ma'noda qo'llanganligi ahamiyatlidir. Shuni aytish kerakki, dastlabki (eng qadimgi) davrlarda marosim yig'i aytimlari ko'proq marsiya tarzida namoyon bo'lgan. Shuningdek, turli bayram, sayil va marosimlar ("Navro'z", "Siyovush", "Lola" va b.) tarkibida xalq qahramonlari - Afrosiyob va Siyovushlarni xotirlab yig'lash an'anasi yuzaga kelgan edi [7.6.].

Atoqli olim I.Rajabov bu yig'ilarning Firdavsiy "Shohnoma"si va Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'atit turk" asarlarida keltirilgan to'rt misrali she'r matnlariga asoslanib, ular kichik shakldagi oddiy kuylardan iborat bo'lganligi haqida xulosaga kelgan [10.299.].

Qadimda "Yor-yor"lar doyra usullarisiz, "Yig'i" aytimi tarzida qo'llangan bo'lishi ehtimoldan holi emas. Qozog'istonlik musiqashunos B.Kokumbayeva "Yor-

yor”ning kelib chiqish ildizini shunday izohlaydi: “Har bir inson eng avvalo oila a’zosi hisoblangan. Uning “ketishi” esa barcha yaqin qarindoshlar uchun yo‘qotish bo‘lgan. Qarindoshlar ikki sabab - qiz bolani turmushga chiqishi yoki inson o‘limi tufayli o‘z a’zolaridan ayrilishlari mumkin. Har ikki holatda ham jamiyat o‘z yaqinlaridan butkul ayrılgan va shu bois ham oilaviy marosim yig‘i-qo‘shiqlari alohida sotsial ahamiyat bilan shartlangan edi” [1.19.].

“Yor-yor” larga zarbli ritmik-usullarning bog‘lanishi san’atkor-ayollarning ijrochilik mahorati va malakalari tufayli yuzaga kelgan bo‘lishi mantiqiyidir. Lekin buning shartli yuzaga chiqishida qadimgi xalqlar orasida yoyilgan diniy e’tiqodlar mohiyatan hal qiluvchi o‘rin tutgan ko‘rinadi.

Musiqashunoslikdagi ayrim tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, o‘tmishda kohin ayollar diniy udumlarni amalga oshirish hamda yovuz ruh va ins-jinslarni haydash maqsadida doyra usullarini chalib, marosim raqslari (haraqatlari)ni bajargan ekanlar. Doyra usullarining shu kabi “mohiyati” inobatga olingan holda “Yor-yor” aytimlariga bog‘langan bo‘lsa ajab emas.

Nikoh to‘yidagi marosim jarayoniga e’tibor berilsa, “Yor-yor” aytimi kelinni kuyovnikiga uzatib borish davomida ayollar tomonidan raqsbop doyra usuliga bog‘lab aytildi. Bugungi kungacha davom etib kelayotgan bu an’ana o‘ziga xos qonun bo‘lib qolgan. Nazarimizda, ajdodlarimiz shu asnoda yangi (Sharqda doim muqaddas hisoblangan) oila hayotiga “qadam” qo‘yayotgan kelinni ko‘zga ko‘rinmas yovuz ins-jinslardan muhofaza qilgan holda kuyovning uyiga eson-omon kuzatib qo‘yanlar.

Bu fikrlar ma’lum ma’noda asosli ekanligini, jumladan, Surxondaryo vohasi ayollar ijjodida yuzaga kelgan qadimiy an’analar ham bir karra tasdiqlashi mumkin. Surxondaryo mahalliy aholisi qadimiy an’analariga ko‘ra, marhumning ruhi o‘z xonadonini tark etishi, shuningdek ins-jins va yovuz ruhlarni ham haydash uchun ayollar dap (doyraga o‘xshash cholg‘u)dan foydalanishar ekan. Masalan, vohaning Boysun, Panjob, Sayrob va boshqa tog‘li hududlarida vafot etgan marhumni so‘ngi yo‘lga kuzatish uchun kelgan ayollar dap chalib yig‘laydilarki, bundan marhumning ruhi o‘z xonadonini tark etishi ko‘zlanadi [9.94.].

Ayollarning “doyra badashlari” nomi bilan ma’lum qadimiy an’analarida ham dap muhim o‘rin tutgan. Qurbonniyoq Panjiyevning shu vohada olib borgan ilmiy kuzatuvlaridan ma’lum bo‘lishicha, badashlarning hatti-harakatlarida raqs va tyeatr san’ati unsurlari mushtarak bo‘lib, ularning aytimlari esa qizdirilmagan dap cholg‘usida hosil qilingan usullar asosida ijro etiladi. Dastlabki (eng qadimgi) davrlarda esa dap o‘rnida angishvona, qoshiq va sopol idishlaridan ham jo‘rnavoz sifatida foydalanilgan ekan. Xalqning hech bir marosimiyu urf-odatlari badashlarsiz o‘tmagan. To‘y yoki sayil deb eshitgan har bir badash ayol o‘z dapini olib borgan.

Bugungi kunda “badashlari”ning shu kabi qadimiy an’analari viloyatning Sherobod, Angor, Muzrabot va Boysun tumanlarida saqlanib qolgan [9.94].

Bugungi kunda Farg‘ona vodiysining Namangan va Qo‘qon viloyatlarining o‘ziga xos “Yor-yor” aytimlari mavjuddir. Bu hududlarda bir necha bor musiqiy eksipyeditsiyalar olib borilib ko‘plab “Yor-yor”lar yozib olingan edi. Jumladan, 1931 yili Farg‘ona viloyatining Marg‘ilon shahridan Yelena Romanovskaya tomonidan Lutfixonim Sarimsoqova ijrosida “Yor-yor” namunasi yozib olingan edi. Ma’lumki, hozirgi kunda ham ushbu “Yor-yor” ijro etilayotganligining guvoh bo‘lamiz.

Qo‘qon tumani to‘y marosimlarida ham “Yor-yor” ijro etish muhim o‘rin tutadi. Qo‘qon to‘y marosimida ijro etib kelinayotgan “Yor-yor”ning kuy-ohanglari Andijon, Namangan va Toshkent “Yor-yor”lariga qaraganda biroz jadalroq ijro etiladi:

### Yor-yor

Yor-yor

Av-val      bosh-lab      ay tay - li - go,      yor bis -  
 mil-loh,      ha yor,      yo-ro - xo,      yor bis -      mil-loh.

Namangan an’anasiga ko‘ra kelin ota uyidan ketar chog‘ida yallachi-satang tomonidan butkul pand-nasihatomuz, frigiy ladida,  $\frac{3}{4}$  o‘lchovda, og‘ir vazminli kuy-ohangga asoslangan “Yor-yor” ijro etiladi:

### Yor-yor

Yor-yor

Yor - yor - ning av - val bo - shi,  
 yor bis - mil - loh, yor,  
 yor - yor - yor.

Namangan yallachiligida “Yor-yor”larni lapar va yallalar singari o’ynaqiroq va sho’xchan 6/8 ufar usuli hamda nisbatan kichik hajmli ovoz (diapazon) asosida kuylashlarini ko‘ramiz. Bunda “Yor-yor”larning asosiy qahramonlari (obrazlari) sifatida ona, qiz, qaynona, kuyov, singil, yangalar, qudalar, qizning dugonalari va

kuyov jo'ralari yallachilarning topqirlik iste'dodi bilan birma-bir "tilga" olinadi. Ayniqsa, kuyov, qaynona, qaynota, xola, amma va quda tog'alar xaqida "so'z ketgan" misralarda hazilnamo gaplar qo'shib aytildi:

Jon quda, jonio quda,  
Holpillamang yor-yor,  
Ichi tushgan qovunday,  
Sholpillamang yor-yor.

Askiya san'ati keng rivojlangan vodiy xalqi orasida bu kabi "Yor-yor"lar mazmunidan hech kim xafa bo'lmaydi, aksincha, zukkolik bilan topib aytilgan qofiyadosh so'z o'yinlaridan to'yga kelganlar rohatlanib kuladilar.

2007-2013 yillar Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlariga qilgan ekspeditsiyamiz davomida "Yor-yor" aytimining faqat yallachilar ijrochiligi uchun xos bo'lgan ma'lum ko'rinishi ham aniqlandi. "Fotima yor-yori" deb ataluvchi bu aytim Qo'qonda Hursanoy Qodirova, Namanganda Munavvarxon Mahkamova va Andijon viloyatinng Izboskan tumanida Muborakxon Qirg'izovalar tomonidan aytib berildi. Munavvarxon va Muborakxon ayalarning ta'kidlashlaricha, avvallari qiz uzatib borishda aynan mana shu "Fotima yor-yori" yallachilar tomonidan ijro etilgan.

Bu "Yor-yor" Namangan shahrida istiqomat qilgan Xojiraxon satang tomonidan XIX asrning boshlarida ijro etilib kelingan. Hozirda esa uning nabirasi Mahkamova Munavvarxon ijro etmoqda. Munavvarxon opaning ta'kidlashlariga ko'ra, XVII-XVIII asrlarda ushbu "Yor-yor" xalq orasida mashhur bo'lgan. Buvisi Xojiraxon aya esa o'sha davrdagi taniqli satang ayollardan o'rgangan.

Bu "Yor-yor"da Hazrat Ali (r.a.)ga payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning qizlari Fotima (r.a.)ni nikohlash marosimi munosabati bilan Fotima va hazrati Bilol o'rtalarida bo'lib o'tgan muzokara suhbati (savol-javoblari) bayon etiladi. Bu muzokaradan murod Fotima (r.a.)ning ushbu nikohga roziliklarini olish bo'lib, bu davrada Fotima onamiz yonlarida hozir bo'lgan ayollar ushbu holatni "Yor-yor" asosida kuylab boshqalarga ma'lum qilgan ekanlar.

Avvallari turmushga chiqmagan qiz yoki uylanmagan yigit vafot etsa, ularni dafn etishdan oldin uyning burchak qismiga chimildiq tutilib "Yor-yor" ijro etilgan. Qariyalarning aytishlaricha, agarda "Yor-yor" aytimsa dafn etilgan qiz (yoki yigit) boqiy dunyoda kelin (yoki kuyov) bo'lishiga to'siqlik bo'lar ekan. Hozirda bunday dafn marosimlari viloyatning ayrim joylarida kuzatiladi.

Xulosa qilib aytganda, "Yor-yor"lar ohangdorligi, so'zlarining ma'nodorligi, o'zida milliy odatlarni aks ettirishi bilan ajralib turadi. Bu "Yor-yor"larda odobli va andishali kelinlar timsolida ularning go'zalligi, kattalarga hurmatda, kichiklarga esa izzatda ekanliklari maqtaladi. Kuyovlar ham ulug'lanadi. Jumladan, ularning mehnatsevarligi, o'z oilasiga sadoqatli, ota-onalariga hurmat-ehtiromli ekanliklari bayon etiladi.

“Yor-yor” aytimi o‘tmishdan to bugungi kunga qadar nafaqat o‘zbek millatida balki, tojik, qirg‘iz, qozoq, turkman va boshqa Sharq xalqlarining to‘y marosimlarida o‘z mohiyatini saqlab, davom ettirib kelmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Абдукаримов М. Танбур, сато и сетор в музыкальной традиции Узбекистана и Таджикистана. Автореф. канд. дис. – Т.: Биб-ка Института искусствознания АН РУз. 1997. –С. 19.
2. Азимова А. Вопросы синтаксиса восточной монодии: – Т.: 1989. 40 б.
3. Вызго.Т.С. Музыкальные инструменты Средней Азии (исторические очерки). – М.: 1980. –С. 47.
4. Вызго.Т.С. Развитие музыкального искусства Узбекистана и его связи с русской музыкой. – М.: 1970. –С. 33.
5. Jo‘rayev M. O‘zbek xalq ertaklarida “sehrli” raqamlar. – Т.: 1991. 50-115 b.
6. Ibrohimov O. O‘zbek xalq musiqa ijodi. 1-qism. – Т.: 1994. 37 b.
7. Narshaxiy. Buxoro tarixi. – Т.: 1991. 6 b.
8. Olimboyeva K. O‘zbek ayoli hayotida musiqa. –Т.: 1996. 18 b.
9. Panjiyev Q.B. Surxondaryo viloyati o‘zbek xalq qo‘sishchilik ijodiyoti. San. fan. nom. dissertatsiyasi. –Т.: 2010. O‘zR FA San’atshunoslik instituti kutubxonasi. Inv. № 1033. 94 b.
10. Раджабов И.Р. О музыке Самарканда. // Из истории искусства великого города. –Т.: 1972. –С. 299.
11. Rajabov I. Maqomlar. – Т.: 2006. 49 b.
12. Успенский В. Записи Ферганских песен (экспедиция 1931 г). –Т.: 1931. Биб-ка Института искусствознания АН РУз. № 455.
13. Тургунова Н. Об истоках искусство Ферганских яллачи. //Культурология, филология, искусствоведение: актуальные проблемы современной науки. Сборник статей по материалам XVII международной научно-практической конференции. – Новосибирск. 2018. №12.
14. Тургунова, Н.М. О жанре ялла и его носителях. Журнал Вестник музыкальной науки. Новосибирская государственная консерватория имени М.И. Глина. – Новосибирск. 2020. №3. –С. 115-121.
15. Turgunova N. Ritual songs Yor-yor of the Fergana volley of Uzbekistan. Euro Afro Studies International Journal ® (EASIJ.COM) Португалия. Volume: 3, Issue: 1, Page: 13 – 23. 2021. ISSN: 2707-8965 (Online) &2708-3772 (Print). DOI: 10.5281/zenodo.3865370.